XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 22-sentabr VII-17-91-2-0-K/25 Buxoro viloyati

“Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ tomonidan Qorovulbozor tumani Neftchilar shaharchasidagi aholi hamda tumandagi yuridik va budjet tashkilotlariga koʻrsatiladigan ichimlik suvi taʼminoti xizmati uchun yangi tariflarni tasdiqlash toʻgʻrisida

“Ichimlik suvi taʼminoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi taʼminoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6074-sonli Farmoniga muvofiq, “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ tomonidan koʻrsatiladigan ichimlik suvi taʼminoti xizmati uchun tariflarni tartibga solish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ tomonidan koʻrsatiladigan ichimlik suvi taʼminoti xizmati uchun tariflar yuzasidan taqdimot maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ tomonidan koʻrsatiladigan ichimlik suvi taʼminoti xizmati uchun yangi tariflar boʻyicha xulosasi inobatga olinsin.

3. “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ tomonidan koʻrsatiladigan ichimlik suvi taʼminoti xizmati uchun yangi tariflar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023-yil 2-avgustdagi VI-82-63-2-0-K/23-sonli hamda 2023-yil 25-sentabrdagi VI-83-77-2-0-K/23-sonli qarorlari oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalarida eʼlon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror bilan tasdiqlangan ichimlik suvi taʼminoti boʻyicha xizmatlar uchun yangi tariflar ommaviy axborot vositalarida rasmiy eʼlon qilingandan keyin oʻn besh kun oʻtgach kuchga kirishi belgilansin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



ASHUROV JAMOL
RAJABBOYEVICH

Xalq deputatlari Buxoro viloyati
Kengashining
2025-yil 22-sentabrdagi
VII-17-91-2-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

“Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ tomonidan ko‘rsatiladigan ichimlik suvi ta’minoti xizmati uchun yangi tariflar

№	Xizmat turi	Yangi tarif *(QQSsiz)*
1.	1 m^3 *(bir metr kub)* ichimlik suvini Qorovulbozor tumani Neftchilar shaharchasidagi aholiga sotish	4000 so‘m
2.	1 m^3 *(bir metr kub)* ichimlik suvini “Buxoro suv ta’minoti” AJ Qorovulbozor tumani filialiga sotish	1000 so‘m
3.	1 m^3 *(bir metr kub)* ichimlik suvini “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ hamda Qorovulbozor tumanidagi boshqa yuridik va budjet tashkilotlariga sotish	7000 so‘m